

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.I.Nurmurodova	
Texnika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uni tashkil etilishi	439
R.N.Nazimov	
Pedagogik texnologiyalar va xorijiy tajribalarning xorij ta'limidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda amalga oshirish asoslari	445
D.A.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari.	448
N.Sh.Mamadov	
Amir Temur faoliyatining yoshlarni ma'naviy kamol toptirishdagi roli	453
N.D.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirish videomateriallari	456
A.U.G'ofurov	
Sport turizmini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari	461
O.T.Karimov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov	
Organik kislota tuzlari bilan modifikatsiyalangan polietilenni termik xususiyatlarini tadqiq etish	467
R.N.Muminova	
Madaniy o'simliklarni etishtirishda xlorelladan foydalanish	470
A.E.Axtyamov	
Reklama matnlarining pragmatik tahlilida tekstuallikning yettita mezonlari	474
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	477
F.Yuldashev	
Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi	481
Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov	
In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish.	486
S.H.Po'latov	
Abu Homid al-G'azzoliy va Ibn al-Arabiy diniy-falsafiy qarashlarida tasavvuf ta'limotining rivojlanishi	490
H.A.Sulaymonov	
Xorijiy tillar grammatikasini o'qitishning umumnazariy masalalari xususida	494
N.T.Mirzaxolov	
Sun'iy intellekt – fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)	498
G'.B.Samatov, S.Mo'minjonov	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash	502
R.Batirov	
Chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari	508
G.Kozlova	
Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni, ta'lim standartlari va tamoyillarini amalga oshirish zarurati	512
V.Isafov, X.Qoraboyev	
<i>Indigofera tinctoria</i> o'simligi va tuproqdagi makroelementlarning o'zgarishi.	515
R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Salomatlik konseptining lingvomadaniy talqini.....	521
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	526
N.R.Zakirova	
Ta'limda yangi texnologiyalarning ustunliklari.....	532
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida	535

XORIY TILLAR GRAMMATIKASINI O'QITISHNING UMUMNAZARIY MASALALARI XUSUSIDA

ОБЩЕЕ ВОПРОСЫ ПРЕПОДАВАНИЕ ГРАММАТИКИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

GENERAL TEACHING OF FOREIGN LANGUAGE GRAMMAR ISSUES

Hotambek Arabbaevich Sulaymonov¹

¹Hotambek Arabbaevich Sulaymonov

– Chirchiq davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tillarni grammatikasini o'qitishning nazariy va metodologik asoslari ilmiy-pedagogik tahlil qilishga harakat qilingan. Xorijiy tillar turkumidagi german oilasi, bu o'rinda aynan ingliz tili misolida so'z grammatik ma'nosining shakllanish imkoniyatlari kognitiv tahlildan o'tkazilgan bo'lib, ularning natijalaridan kelib chiqib mazkur mavzuga oid umumnazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Аннотация

Статья посвящена научно-педагогическому анализу теоретико-методологических основ преподавания грамматики иностранных языков. Немецкая семья в категории иностранных языков, где возможности формирования грамматического значения слова на примере английского языка в этом месте были проведены посредством когнитивного анализа, по результатам которого были выработаны универсальные выводы по этой теме.

Abstract

The article focuses on scientific and pedagogical analysis of the theoretical and methodological foundations of teaching grammatics of foreign languages. The german family in the category of foreign languages, where the possibilities of the formation of the grammatical meaning of a word on the example of English in this place were carried out through a cognitive analysis, from the results of which Universal conclusions on this topic were developed.

Kalit so'zlar: grammatik, kategorik, kategorial ma'no, kognitiv, lisoniy faoliyat, ma'no qirralari, ot, semantik-stilistik, sifat, o'zak.

Ключевые слова: грамматическое, категориальный, категориальное значение, когнитивная, лингвистическая деятельность, грани значений, имя существительное, семантико-стилистическая, имя прилагательное, корень.

Key words: grammatical, categorical, categorical meaning, cognitive, linguistic activity, facets of meanings, noun, semantic-stylistic, adjective, root.

KIRISH

Tilning lug'at qatlami muttasil o'zgarishlarga uchrab turadi. Bunday o'zgarishlar uning fonetik va morfologik sathi bilan chambarchas bog'liq. Har bir til lug'aviy qatlamining semantik - stilistik imkoniyatlari unda leksik-semantik birliklarning grammatik va semantik-stilistik paradigmaları hamda bu paradigmaların mazmun sathi kognitiv tilshunoslik o'rganish ob'ektlaridan hisoblanadi. Lisoniy faoliyat nafaqat kognitiv faoliyat bilan bevosita bog'liq, balki uning ajralmas qismi hamdir. Ammo kognitiv tilshunoslik, kognitologiya boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirilishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solish masalasi bilan ham shug'ullanadi. Kognitiv tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. Kognitivist lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarini, ularni yuzaga keltiruvchi sabablarini qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot matnlari - lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik asosan inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog'liqligida tadqiq etuvchi, "tushuntiruvchi" fan sohasidir: [5. 17-33] bunday tadqiq ikki yo'nalishda bajariladi: a) nutqiy faoliyat ijrosi va uning mahsulining paydo bo'lishi; b) ushbu faoliyat mahsulotlarining idrok etilishi [9.91]. Tilning grammatik imkoniyatlari beqiyos ekan, bu hol til lug'aviy qatlamining leksik-semantik taraqqiyotini ta'minlaydi. Ko'p yillar mobaynida grammatik sathda olimlar so'z turkumlarini muttasil o'rganib kelayotgan bo'lsalar-da, hali bu sohaning o'ziga yarasha ochilmagan qirralari paydo bo'lmoqda. Leksemaning semantik sathi uning barcha grammatik imkoniyatlari bilan mustahkam bog'langan,

so'zda grammatik ma'no qirralarini o'rganish lingvopoetika, umuman tilshunoslik taraqqiyotining muhim aspektlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'zning kategorial ma'nosi har doim ham uning leksik ma'nosi bilan bog'lanavermaydi. So'z grammatik qurilishning bazasi; u tilning lug'at qatlamida ham, grammatik qurilishida ham eng zarur va asosiy birlikdir. So'zlar yakka holda predmet, hodisa, belgi kabilarni bildiradi (ular haqidagi tushunchani ifodalaydi), ularni ataydi (bu tilning nominativ funksiyasi), lekin fikr bayon qilishda u gap tarkibida bo'ladi: so'z gap tarkibida, nutqda tilning fikr bayon qilish vositalari tizimidagi o'z diskursiv vazifasini bajaradi, shu bilan birga ma'nosining yangi qirralari ham shakllanadi (ya'ni polisemantik so'zlarning ma'no paradigmaları disskursiv sharoitda shakllanadi) [13.16]. Til nominativ va kommunikativ funksiyalardan tashqari ekspressiv vazifani ham bajaradi. So'zning bunday vazifasi ham ma'lum qonuniyatlar doirasida amalga oshadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'z ma'nosining asosi ongdagi tushunchalar, voqelikdagi hodisalar. So'z orqali borliqning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. So'z turkumlari o'zlarining grammatik kategoriyalari orqali xarakterlanadi. Otlar son va kelishik kategoriyasiga ega, fe'llar esa zamon, nisbat, mayl va boshqa kategoriyalari bilan tuslanadi. Sifatlar esa, taqkoshlash kategoriyasiga egadir. Shu sababli ham turli ma'lum so'z turkumlariga tegishli bo'lgan leksemalarning nafaqat leksik, balki grammatik kategorial ma'no paradigmaları ham turlichadir. Masalan, fe'l paradigmaları uzunroq: *write, writes, wrote, shall write, will write, am writing, is writing, was writing, were writing, have been writing* va h.k. Ot paradigmaları esa biroz qisqaroq: *sister, sister's, sisters, sisters'*. Sifatniki esa undan ham qisqa: *cold, colder, coldest*. Ravishning paradigmasi esa yanada qisqa: *always*.

So'zning semantik tarkibi shakllanishida ma'no va shaklning mutanosiblik paradigmaları bu hodisa tilning fonetik, leksik-semantik va grammatik hodisalar bilan mustahkam aloqadorligi ko'rsatadi. So'zning semantik strukturasi so'z ifodalaydigan ma'nolarning yig'indisidir. So'zning fonetik strukturasi so'zning tipik tovush tarkibidan iborat. So'zning tovush tarkibi uning grammatik tabiatini ham tashkil qiladi. Ayniqsa, bu hol ingliz tili nuqtai nazaridan nihoyatda muhim, chunki ingliz tilining konservativ komponentlari qator so'zlarning tovush tarkibini eski, arxaik shaklda saqlashga erishgan. Aynan shu hol so'zlarning yozilishi va o'qilishi orasidagi farqlarni keltirib chiqargan.

So'zning morfologik strukturasi har biri ma'lum bir tilning o'z ichida ham farqlanadi. Ularning bir til doirasida, bir tilning o'z ichidagi farqi, til taraqqiyotining turli davrlariga ko'ra ham leksik-stilistik jihatdan farqlanishini ham ta'minlagan. So'z turkumlarining birikish imkoniyatlari haqida ran borganda avvalambor, leksik - grammatik ma'no ko'zda tutilishi kerak. Shu yo'nalishda birikish, so'zlar leksik - grammatik guruhining asosi bo'lib, ma'lum guruhdagi so'zlarning leksik-grammatik paradigmalarını tashkil qiladi hamda diskursiv sharoitda o'sha so'zlar bilan aniq bir qismlar (birikmalar) tashkil qiladi. Ingliz tilidagi *to (from, at) school* birikmasi bunga yorqin misol bo'la oladi.

Yuqorida qayd etilganidek, so'z turkumlari gapdagi vazifalariga ko'ra ham xarakterlanadi. Ot asosan, ega yoki to'ldiruvchi vazifasida, fe'l esa, kesim vazifasida, sifat esa, aniqllovchi vazifasida qo'llanadi. So'zning grammatik, leksik - semantik ma'nolari ularning gapdagi sintaktik vazifalarini ham ta'minlaydi. Gapning egasi faqat ot bilan emas, balki olmosh, son, gerundiy, infinitiv va boshqalar bilan ham ifodalanishi mumkin. Boshqa tomondan esa, ot gapning har qanday qismida biror bir vazifasida gapni to'ldirib kela oladi. Biroq, predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar odatda har qanday gap qismini to'ldirib bog'lay oladi.

Bularning hammasi grammatikaning ikki asosiy birligi bo'lgan so'z va gapni almashtirib yuborishdan qochish imkonini beradi. Shunday qilib so'z turkumlarining quyidagicha kategorial xususiyatlari farqlanadi:

- o'zining leksik-grammatik ma'nosiga ko'ra farqlanishi;
- o'zining leksik-grammatik morfemalariga (o'zak yasovchi qo'shimchalari) ko'ra farqlanishi;
- o'zining grammatik kategoriyalari yoki paradigmalariga ko'ra farqlanishi;
- o'zining birikuviga ko'ra farqlanishi;
- gapdagi vazifasiga ko'ra farqlanishi bilan xarakterlanadi.

So'zlar o'zining morfologik tasnifiga ko'ra grammatik ma'nosini shakllantirar ekan, bu hol so'zning kategorial turkumi semantik paradigmasini muttasil o'zgarib borishini ta'minlaydi. So'zning leksik ma'nosi uning mazmun plani asosida turadi va kognitiv psixologiya uchun zamin yaratadi.

So'zning grammatik ma'nosi ikki umumiy holatni nazarda tutadi: birinchidan so'zning predmetlik, belgi, miqdor, harakat va holat, uning belgisi nuqtai nazaridan kategorial xususiyatlari, ikkinchidan, nutqda ularni kognitiv mazmun imkoniyatlarini ta'minlashga xizmat qiladigan yordamchi kategoriyadir.

Biz so'z turkumlarini mustaqil hamda yordamchi (notional and functional or structural) qismlarga bo'lib o'rganamiz. Mustaqil so'z turkumlari ekstralingvistik fenomenlarni, ya'ni narsa, harakat, sifat, hissiyotni; yordamchi so'z turkumlari so'zlar va gaplar o'rtasidagi aloqa va bog'liqliklarni yoki boshqa qo'shimcha holatlarni to'ldirishga xizmat qiladi, yordam qiladi. Mustaqil so'z turkumlari gapda ma'lum vazifalarni bajaradi.

So'z yuklamalarining grammatik xususiyatlari ko'p hollarda ma'nolari ikkinchi darajali, qo'shimcha hisoblanadi. Bu borada birgina misolga murojaat qilaylik. Xususan, *Table va after* kabi so'zlarning tabiati o'rtasida ham ma'lum farq bor. Ularning birinchisi narsa-predmetni nomlasa, ikkinchisi aloqani ko'rsatadi. Biroq ikkalasi ham "nomlanayotgan vazifani to'ldira oladi". *Relation, attitude* kabi otlar, *belong, refer* kabi fe'llar ham aloqani ko'rsatadi, biroq ulardagi bu aloqa faqatgina bir so'z turkumi ichida qoladi. Predloglar va bog'lovchilar Real dunyodagi turli aloqalarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi.

Yu.Nayda "*boy, fish, run, walk, good, bad, against* va *with* kabi so'zlarni tabiiy va madaniy fenomenlarning turli ob'ekti, sifati, jarayoni, holati va aloqasi" deb yozganda otlar bilan predloglar o'rtasida farq yo'qligini ta'kidlagan edi. H.Suit esa, "to'liq" va "bo'sh" so'zlari birligini ta'kidlaydi. The earth is round gapining tahlili jarayoni haqida yozib, u "*the va is*" kabi so'zlarni biz shakliy so'zlar deb ataymiz, chunki ular shakl tipidagi so'zlardir, deb ta'kidlaydi. Ko'pgina mualliflar so'zlarning vazifasi haqida o'z asarlarida ham gapirib o'tganlar.

D.Braun, S.Braun va D.Beylilar esa, yordamchi fe'llar, predloglar va artikllarni yordamchi so'zlar (functional words) deb ataydilar. V.Jigadlo, I.Ivanova, L.Iofik predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar va artikllarni mustaqil so'z turkumlaridan farqli o'laroq yordamchi so'z turkumlari deb ataydilar. [17.75.] Ch.Freyz esa, so'z turkumlari deb nomlanuvchi 4 ta so'zlar guruhini va yordamchi so'z turkumlari deb ataluvchi 15 ta so'z guruhlarini sanab o'tadi.

Yordamchi so'zlar bilan boshqa so'zlar o'rtasidagi farq noaniq bo'lib qolganligini yuqoridagilardan bilsa bo'ladi. Ba'zan farq so'z turkumlari o'rtasida ham unchalik sezilmaydi (xususan, sifatlar fe'lga bog'langanda ravishga, ravishlar esa, otga bog'langanda sifatga o'tadi). Ba'zi hollarda bir so'z. turkumi ichida ham so'zlarning grammatik ma'nosini ajratish qiyin bo'lib qolgan.

Predloglardan tashqari yordamchi fe'llar ham gapda qo'shimcha - ko'makchi vazifalarni bajaradi. Yordamchi so'z turkumlaridan tashqari grammatik olimlar mustaqil so'zlarni, masalan fe'l kabi ma'lum bir kategorial so'z guruhini ham funktsional ishlatish mumkinligi haqida so'z yuritishadi. Yu.A.Krutikov esa yordamchi so'zlarni yarim mustaqil (semi-notional) deb ataydi. Uningcha, predloglar, bog'lovchilar, artikllar va yuklamalar yarim mustaqil so'z turkumlaridir. Ular semi notional parts of sreech deb atalib, mustaqil so'z turkumlariga qarama-qarshi qo'yiladi. Ularni (ya'ni, semi notional parts of sreech) nimalarni birlashtirishi quyidagicha beriladi; a) o'zlarining umumiy va qiyosiy hamda leksik ma'nolarini; b) o'zlarinig inkoriy ajratilganligini izolyasiyalanganligini; v) ularning majburiy ko'p tomonlama (artikl, yuklama) yoki ikki tomonlama (predlog, bog'lovchi) birikmalarini, g) bog'lash vazifalari (bog'lovchilar, predloglar) yoki maxsus so'zlari (artikllar, yuklamalar)ni birlashtiradi.

Tabiiyki, yuqorida qayd etib o'tilganidek, ingliz tili so'z turkumlari tizimi unchalik aniq anglarli darajada emas. Agar so'z turkumlarining yuqorida qayd etilgan ba'zi jihatlarini hisobga olib, ba'zilarini hisobga olmasak, ko'z o'ngimizda o'ziga xos tasavvur paydo bo'ladi. Shunday qilib, so'z turkumlarining asosiy xususiyatlari deb, ularning grammatik kategoriyalarini olsak, leksik-grammatik ma'nosini, birikuvini va sintaktik vazifasini e'tiborga olmasak, unda X.Svit va O.Espersonlar kabi ravishni, predlogni, bog'lovchini undov so'zlarni va yuklamani bir sinfga yoki guruhga birlashtirishga to'g'ri keladi. X.Svit ot, sifat, son, fe'l va yuklamalarni o'z davrida zamonaviy

ingliz tili so'zlarining alohida guruhlariga kiritgan. O.Esperson esa substantsiya, sifat, fe'l, olmosh va yuklamalarni ham shu guruhlariga kiritgan.

So'z turkumlari (notional words - mustaqil so'zlar) va yuklamalar (semi - notional words) o'rtasidagi farq bir necha yillar mobaynida rus tilshunoslari tomonidan birikuvchi so'zlar (combinations of words) dan so'z birikmalari (word -combinations)ni farqlash uchun qo'llanib kelindi. So'z birikmasi (word -combination) iborasi tor ma'noli bo'lib, faqat kamida ikkita ma'noli so'zlarni o'z ichiga olishi darkor. Shunday qilib, on the table so'zlar birikuvi (combination of words) hisoblanadi, lekin so'z birikmasi (word - combination) emas, chunki bu erda faqat bitta mustaqil leksik ma'noli so'z - table bor.

So'z turkumlari tizimi tarixan o'zgaruvchandir, til rivojlangan sari yangi so'z turkumi shakllanib, tilga kirib kelavergan. Eski ingliz tilida holat kategoriyasi, artikllar, modal so'zlar yo'q bo'lgan, biroq yangi ingliz tilida bular o'z o'rnini topgan. Biror tilda qancha so'z turkumlarini aniqlamaylik, baribir lug'at tarkibi muammosi esa undan kam emas. Grammatikada leksemalar kichik qiyosiy bir nechta leksik-grammatik guruhlar - so'z turkumlariga yoki qismlariga bo'linadi.

Biror so'z turkumi odatda kichik leksik - grammatik guruhchalarga bo'linishi ham mumkin. Bu kichik bo'linish so'z turkumlarini ajratib turishga xizmat qiladigan o'sha bir xil tamoyillarga asoslanishi mumkin.

XULOSA

Tasvirlash yo'li orqali bir tomondan boy, friend hamda ikkinchi tomondan boyhood, friendship otlarini taqqoslash quyidagi natijalarga olib keladi. Bu so'zlar tashkil etib turgan barcha leksemalingliz ot leksemalari xususiy otlariga ega. Biroq, bu otlar uyushiq bo'laklar emas. Ular leksik - grammatik ma'noga ega bo'lgan "substantsiya" ostida Birlashgan, boy va friend "sanaladigan substantiya", boyhood va friendship "sanalmaydigan substantiya"ni bildiradi. Boy va friend leksemalari to'rt a'zoli paradigmaga ega, boyhood va friendship esa, atigi bittagina paradigmaga ega. Bu so'zlarning birikuvi, garchand sezilarli darajada bir xil bo'lsa-da, ma'lum bir farqqa ega emas. Boyhood va friendship, boy va frienddan farqli o'laroq, sonlar bilan birikuv shakllariga ega emas. Bunday farqlar dinamikasi til morfologik sathining taraqqiyotini, binobarin leksik -semantik va mazmun taraqqiyotining eng asosiy omillaridan biri sanaladi. Ingliz tilining grammatik tahlilining biz e'tibor qaratgan ayrim masalalari inson lisoniy faoliyatini taraqqiyotini bir til yoki ko'p til misolida tahlil qilish binobarida yangi-takomillashgan xulosalar chiqarishimizga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аксененко И. Предлоги английского языка - Москва: 1956.
2. Аполова М.А. Specific English - Москва: Меж.отн., 1977.
3. Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики // Хорижий филология. - Самарканд: СамГИИЯ, 2007. №3 (24). - С. 5-6.
4. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. - Москва: Высшая школа, 1983.
5. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. 1994.
6. Nurmanov A. Maxmudov N. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: 1992.
7. Nurmanov A. Til haqida sintaktik nazariyalar. - Toshkent: 1988.
8. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: Учеб. Пособие. - Минск: Тетра Системс, 2004.
9. Safarov Sh.S. Kognitiv tilshunoslik. - J.: "Sangzor nashriyoti", 2006. Стернин И.А., Попова З.Д. Когнитивная лингвистика. - Москва: "Восток-запад", 2007.
10. Turniyazov N. Matn lingvistikasi. - Samarqand: SamDChTI nashri, 2004.
11. O'zbek tili grammatikasi. - Toshkent: Fan. 1975.
14. O'zbek tili stilistikasi / A. Shomaqsudov, I. Rasulov, R. Qo'ng'urov, H. Rustamov. - Toshkent: "O'qituvchi", 1983.
15. Galperin I.R. Stylistics - Moscow: 1977.
16. Bloomfield L. An Introduction to the study of Language. N.Y. 1914 p Buranov J.B, Yusupov U.K, Mskulov M.T, SodikoV A.S. The grammatical structure of English, Uzbek and Russian. Tashkent, Ukituvchi PH, 1986.
17. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. - Москва: Изд-во: Литература на зарубежном языке, 1956.